

QADIMGI HINDISTON VA XITOIDA FALSAFIY TAFAKKUR RIVOJI

Davronov Ziyot Davronovich.*F.f.d., professor.***Salimov Baxriddin Lutfullaevich.***TDTr.U dotsenti.***Mahmudaliev Davlatmirza O‘ktam o‘g‘li.***TDTr.U talabasi.*

Annotatsiya: *Qadimgi Hindistonda, «Veda» «Upanishad» kabi yodgorliklar uchraydi. Upanishad falsafasining asoschisi Brixaspati edi. Bundan tashqari «Charvaka» ta’limoti bo‘lib, bu dunyoning asosida to‘rtta narsa yer, suv, havo, olov yotadi, deb tushuntiradi. Qadimgi Xitoyda tabiatni qonuniy rivojlanishi to‘g‘risidagi materialistik, stixiyali, dialektik qarash (dao-qonun) daotsizm deyiladi. Buning asoschisi Lao-Szidir. Qadimgi Xitoy va Hindiston falsafasi ilmiy zaminga ega bo‘lmasada, umuminsoniyat ilmiy xazinasiga katta hissa qo‘shdi.*

Kalit so‘zlar: *Veda, Upanishad, Charvaka, dao, Konfutsiy.*

Abstract: *In ancient India, such monuments as "Veda" and "Upanishad" are found. Brihaspati was the founder of Upanishad philosophy. In addition, there is the doctrine of Charvaka, which explains that the basis of this world is earth, water, air, and fire. In ancient China, the materialistic, spontaneous, dialectical view of the legal development of nature (dao-law) is called Daoism. The founder of this is Lao-Tzu. Although the philosophy of ancient China and India did not have a scientific basis, it made a great contribution to the scientific treasure of all mankind.*

Key words: *Veda, Upanishad, Charvaka, Dao, Confucius.*

Materialistik falsafiy dunyoqarash ilk bor Hindistonda va qadimgi Xitoyda ham paydo bo‘la boshladi. Hindistonda falsafiy qarash eramizdan oldingi uchinchi ming yilliklardan so‘ng boshlangan.

Hindistonda yangi ilg‘or tabaqa bo‘lgan braxmanizm diniy qarashga qarshi chiqdi. Ijtimoiy qarama-qarshilikning keskinlashuvi idealizm bilan dinga qarshi bo‘lgan materialistik maktablarning kelib chiqishi uchun zamin hozirlaydi. Qadimgi Hindistonda, «Ved» «Upanishad» kabi yodgorliklar uchraydi. Upanishad falsafasining asoschisi Brixaspati edi. Bundan tashqari «Charvaka» ta’limoti bo‘lib, bu dunyoning asosida to‘rtta narsa yer, suv, havo, olov yotadi, deb tushuntiradi. Ular hamma narsa va hodisalarning

paydo bo‘lishi va yo‘q bo‘lishi tabiiydir, deb ko‘rsatadilar. Dunyoni bilish masalasini ham materialistik asosda hal qilganlar. Haqiqiy bilimning manbai tashqi dunyo bo‘lib, sezgi organlarimiz orqali u haqda tasavvur hosil qilamiz deyдилar. Ular abstrakt tafakkurga ham baho berdilar. Shular sababli xudoga ishonmadilar.

Bundan tashqari Xitoyda ham sinfiy tabaqalanishning boshlanishi sinfiy kurashning keskinlashuvi, ideologiyada o‘z aksini topdi. Xitoyda hokim sinflar, dinni xalqni ezish uchun qurol qilib oldilar, xalq ongiga diniy aqidalarni ham singdirdilar. Xitoyda matematika, meditsina, biologiya sohasida ham bir qancha yangiliklar ochildi. Qadimgi Xitoyda birinchi materialistik qarash - dunyo besh xil elementdan – suv, yer, havo, olov, yog‘ochdan iborat deb tushuntirdi.

Xitoy materialistik faylasoflari, dunyoni moddiy birligini e‘tirof qilib, dunyoning asosida bitta «si» ya‘ni abadiy harakat qiluvchi modda yotadi, deyдилar. Moddaning harakat manbai ijobiy (yan), salbiy (in) ta’sir orasidagi munosabatdan iborat, deyдилar.

Tabiatni qonuniy rivojlanishi to‘g‘risidagi materialistik, stixiyali, dialektik qarash (dao-qonun) daotsizm deyiladi. Buning asoschisi Lao-Szidir. Lao-Szi maktabi qadim Xitoy materialistik falsafaning rivojlanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Lao - Szi ta’lim berishicha hech narsa doimiy emas, hamma narsa harakatda, Lao-Szi fikricha narsalarning asosiy rivojlanish qonuni shundaki, har bir narsa o‘zining rivojlanish darajasiga yetishi bilan o‘zining qarama-qarshisiga aylanadi. Bu hayot- hayot qonunidir, deydi u.

Ushbu materialistalarning fikricha dunyo doimiy o‘zgarib turuvchi bir butunlikni tashkil qiladi. Aytish lozimki, mazkur ta’limotlarda dunyoning rivojlanishi haqidagi materialistik elementlar ancha rivojlangan edi.

Demak, falsafa kishilik tarixida qadimgi Sharq mamlakatlarida Misr, Vavilioniya, Hindiston, Xitoyda paydo bo‘lib, sodda stixiyali materializm xarakteriga ega edi. Chunki Xitoy, Hindiston, Arabiston, O‘rta Osiyoda feodalizmning dastlabki davrda tabiiy ilmlar ancha rivojlangan edi.

Xitoyda Xan dinastiyasida (eramizgacha 3-1) feodalizm vujudga keldi. Bu davrda xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat kuchaydi. Xan dinastiyasining tarqalishi natijasida Xitoyning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi sekinlashdi va dehqonlar g‘alayonlari boshlandi.

Feodal gruppalarining o‘zaro kurashi, dehqonlar, hunarmandlar kurashi ideologiyasida o‘z ifodasini topdi. Bu davrda Xitoyda ikki falsafiy oqim dotsizm va konfutsiychilar mavjud edi.

Konfutsiychilar falsafasining vakili Dun Chjun edi. U imperator hukmronligini muqaddas, deb biladi. Asosan idealistik kurashni ilgari surgan. Unga qarshi Van Chun fikr bildiradi. Uning falsafasini markazida Si va Dao tushunchalari yotadi. Si-substansiya, Dao voqelikning qonuniy rivojlanishidir.

Butun narsalarni suyuqlashgan (Yan-si), ko‘piklangan (in-si)dir, ular doimiydir, deb biladi. Van Chun diniy aqidalarni tanqid qiladi, kishi o‘lganidan keyin qon harakati to‘xtashini hayot energiyasining tugashi, deb ko‘rsatadi. Van Chun ta’limotida ham stixiyali dialektika elementlari bor edi. Uning dilektikasi Yan-si va In-sining o‘zaro ta’siri haqidagi fikri butun jarayonning ikki tomoni ekannini e’tirof etishdir. U bilishni materialistik yo‘nalishdan tushuntirdi.

Qadimgi Xitoy va Hindiston falsafasi ilmiy zaminga ega bo‘lmasada, umuminsoniyat ilmiy xazinasiga katta hissa qo‘shdi. Lekin u, falsafa feodalizm davri ideologiyasining asosiy shakli edi. Chunki ruhoniylar feodal sinfining asosiy qismini tashkil etar edi. Kishilik fikrining hamma sohasi falsafa, dinga, diniy sistemaga moslashtirilgan edi. Falsafa shu davrga kelib ilohiyotga, sxolastikaga aylandi. Tabiatni o‘rganish gunoh hisoblanar edi. Tabiat haqida fikr bildirganlar o‘ldirilganlar, quvg‘in qilinganlar. Lekin bunday harakatlar insonlar fikriga aksincha ta’sir etmadi. Chunki feodalizm zaminida kapitalistik ishlab chiqarish usuli vujudga kelgani uchun din va cherkovga qarshi atomistik, materialistik tendensiyalar ham avj oldi. Lekin ochiq kurashish mumkin emas edi. Shuning uchun progressiv fikr berish asosida harakat qildilar. Bularning barchasi sivilizatsiyadan dalolat edi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, eng qadimgi falsafiy fikrlar Sharqning Bobili (Vaviloniya)da eramizdan oldingi IV nchi ming yillikning boshlarida paydo bo‘lgan. O’sha davrlardayoq odamlarning olamda ro‘y berib turadigan xilma-xil hodisa va jarayonlariga bo‘lgan munosabatlari hamda qiziqishlari, eng sodda bo‘lsa-da, falsafiy qarshlarda namoyon bo‘laboshlagan. Vaviloniyadagi o’sha davrning mashhur asarlaridan biri, “Gilgomesha haqidagi doston” bo‘lib, unda tuproq, suv, havo, issiqlik inson hayoti va tirikligining asosiy va abadiy manbasi, deb e’tirof etilgan. Boshqa xalqlarning ham bu asarga o‘xshagan asarlari, ertak va sarguzashtlari mavjudki, ularni bir-biriga yaqinligini sezamiz. Shu ma’noda jahon madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan falsafa fani dunyoviy asoslar yordamida shakllangan. Demak, falsafa bir millat, bir xalq, bir mamlakat falsafasi bo‘lmay balki turli davr va sharoitlarda yashab ijod etgan, yashab kelayotgan barcha xalqlarning butun insoniyatning ma’naviy, madaniy boyligidir.

Uzoq asrlar davomida shakllangan, to‘ldirilgan muammolari yangilangan hamdir. Dunyo mutafakkirlari, allomalari, donishmandlari, shoir va yozuvchilarning mahsulidir. Nemis, fransuz, yapon, o‘zbek falsafasi deganda, ularni falsafaga nisbatan nisbiyligini e’tirof etish zarur. Dunyo fani bo‘lgan falsafaga har bir xalq, har bir millat o‘z hissasini qo‘shadi, xolos. Bu hissa orqali falsafaning umumiy jihatlari boyiydi, taraqqiy qiladi, rivojlanadi. Shu sababli ham, Sharq va /arb falsafasi aloqada va bog‘lanishdadir. Zero, har bir qo‘llanma va darsliklarda, kitoblarda, ilm maqolalarda umuminsoniy fikrlardan foydalanadilar.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.